Brifing: “O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarining ishonch aloqa kanallari orqali jismoniy va yuridik shaxslardan 291 ta murojaat kelib tushgan

// 15.07.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/brifing-o-zkimyosanoat-aj-va-tarmoq-korxonalarining-ishonch-

“O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarida 2025-yilning 2-choragida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumot berib o‘tamiz

“O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarining Korrupsiyaga qarshi kurashish va Komplayens boshqarmalari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida 2025-yilning o‘tgan 2-choragida o‘tkazilgan chora-tadbirlar Qonunchilik va ichki-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar doirasida amalga oshirildi.

Jumladan, hisobot davrida komplayens nazorat va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar “O‘zkimyosanoat” AJning ijro apparati, “Navoiyazot”, “Dehqonobod kaliy zavodi”, “Maksam-Chirchiq”, “Ammofos-Maksam”, “O‘zkimyosanoatloyiha” AJlari hamda “Qizilqum fosforit kompleksi”, “O‘zkimyoimpeks” MCHJlarida amalga oshirildi.

Hisobot davrida “O‘zkimyosanoat” AJ va uning tarkibiy korxonalariga ishga yangi qabul qilingan **455 nafar** xodim manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida tekshirildi.

Shuningdek, **76 nafar** rahbar hodim va korrupsiyaga qarshi ichki tuzilma hodimlarining malakasi oshirildi. Jumladan, **50 nafar** rahbar hodim **ISO 31000:2018 “Xavflarni boshqarish”** xalqaro standarti va **26 nafar** korrupsiyaga qarshi ichki tuzilma hodimlari Korrupsiyaga qarshi virtual akademiya portali orqali **“Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining samarali ishlashini ta’minlash”** mavzusida maxsus chuqurlashtirilgan o‘quv kursida o‘z malakalarini oshirdilar.

Bundan tashqari, korxonalarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari tomonidan **20 dan** ortiq korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga bag‘ishlangan mavzularda seminarlar va davra suxbatlari o‘tkazilib, ularda jami **850 nafardan** ortiq hodim nazariy bilimlarga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq “E-Antikor.uz” elektron platformasiga “O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarida joriy yilning o‘tgan **6 oyi** davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlarga oid ma’lumotlar **5 ta** yo‘nalishda **29 ta** maxsus indikatorlar asosida platformaga biriktirildi.

Ta’kidlab o‘tish lozim, joriy yilning 12-iyun kuni “O‘zkimyosanoat” AJ “CERT International” xalqaro akademiyasi tomonidan muvaffaqiyatli auditdan o‘tib, korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi nufuzli xalqaro standart - ISO 37001:2016 sertifikatiga ega bo‘ldi.

Hisobot davrida “O‘zkimyosanoat” AJ va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarda o‘tkazilgan Davlat haridlari doirasida **3500 dan** ortiq xo‘jalik shartnomalari tuzilgan bo‘lib, barchasiga korrupsiyaga qarshi kurashish talablari kiritilgan.

O‘tgan davrda “O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarining ishonch aloqa kanallari orqali jismoniy va

yuridik shaxslardan **291 ta** murojaat kelib tushgan, shundan **12 tasi** korrupsiyaga oid bo‘lib, barchasi bo‘yicha xizmat tekshiruvlari o‘tkazildi. Uning natijasida 10 nafar xodimga nisbatan intizomiy chora qo‘llanildi.

Shuningdek, tizimda **52 marotaba** rejali nazorat tekshiruvlari o‘tkazildi, natijada **24 ta** holat bo‘yicha to‘plangan materiallar huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga huquqiy baho berish uchun taqdim etildi. Bugungi kunda **20 ta** holat bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan va tergov harakatlari olib borilmoqda.

2025-yilning ikkinchi choragi davomida “O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlar tarmoqda ochiqlik, mas’uliyat va halollik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati